



## INVESTITSIYANING QURILISH VA ISHLAB CHIQRARISH SOHALARINING RIVOJI UCHUN TUTGAN O'RNI (SAMARQAND VILOYATI MA'LUMOTLARI ASOSIDA)

*Turdimurodov Jasur Ilxomovich*

*Qurilishni boshqarish fakulteti, "Qurilish iqtisodiyoti va menejment" kafedrası,  
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti, SamDAQU*

**Annotatsiya:** *Maqolada investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati, mamlakatda barqaror iqtisodiy yuksalishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri ekanligi haqida, xususan Samarqand viloyatida qurilish va ishlab chiqarish sohalariga kiritilayotgan investitsiyalar, mamlakatimizda investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va yurtimizdagi qulay investitsion muhit haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Annotation:** *The article contains information about the essence of investment activity, one of the factors that positively affect the sustainable economic growth in the country, in particular, investments in construction and production sectors in the Samarkand region, opportunities created for investors in our country and a favorable investment climate in our country.*

**Kalit so'zlar:** *Investor, investitsiya, aktsiya, sarmoya, investitsion muhit.*

**Key words:** *Investor, investment, stock, investment environment.*

Investitsiyalar - bu nima? Odatda, moliyaviy investitsiyalar - bu foyda olish maqsadida ob'ekt yoki vositaga pul mablag'larini jalb qilinishidir. Investitsiyalar faqat pul ko'rinishida bo'lmydi. Ko'pincha, bu aktsiyalar yoki qimmatli qog'ozlarni sotib olish, ob'ektga egalik huquqi, litsenziya yoki mualliflik huquqi, valyuta, qimmatbaho metallar ko'rinishda bo'lishi ham mumkin. Ularning oqilona qo'llanilishi mamlakatning eng muhim tarmoqlari, ishlab chiqarishi, turizmni rivojlantirish yoki qurilish sohalari uchun rivojlanish darajasini va uning istiqbollarini oshirishga imkon beradi. Investitsiya mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot sifatini oshirish, aylanma mablag'larni yaratish va rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy aktivlar zaxirasini yaratishga imkon beradi.

**Investitsiyalarni qanday jalb qilish kerak?** Yuqori daromadli investitsiyalar har doim sarmoyadorlar uchun yanada jozibador bo'ladi, ammo kerakli natijaga qanday erishish mumkin? Zarur investitsiya paketini qo'lga kiritish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadigan ba'zi bir jihatlar mavjud:

- boshqa rejalarni qat'iy hisobga olish bilan ochiq biznes yuritish;





- kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, rivojlanish strategiyasini tuzish, ularga rioya qilish uchun maksimal sa'y-harakatlarni qo'llash;
- kutilayotgan daromad va xarajatlarning sog'lom bahosi;
- biznes sohasida takliflar yoki ijobiy nufuz mavjudligi;
- moslashuvchan hamkorlikka tayyorlik;
- qulay iqtisodiy sharoit, investitsiya muhiti va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanilishi.

**1. Investitsiya shartlari bo'yicha:**

- qisqa muddatli investitsiyalar - odatda, bir yilgacha bo'lgan davr;
- o'rta muddatli investitsiyalar - bir yildan 3-5 yilgacha bo'lgan davr;
- uzoq muddatli investitsiyalar - ko'pincha 3-5 yildan ko'proq vaqt davomida.

**2. Hududiy asosda:**

- ichki;
- tashqi.

**3. Investitsiya ob'ektlarining turlari bo'yicha:**

- Ishlab chiqarish yoki biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan;
- portfel yoki moliya - ular to'g'ridan-to'g'ri investorga foyda keltiradi.

**4. Investor ishtiroki turi bo'yicha:**

- bilvosita investitsiyalar;
- to'g'ri biriktirma.

**5. Daromad bo'yicha:**

- daromadlarning cheklanganligi, lekin ijtimoiy, ekologik yoki boshqa imtiyozlar mavjudligi;

- past;
- o'rtacha;
- yuqori.

**6. Mulkchilik shaklini hisobga olgan holda investitsiyalar:**

- xorijiy;
- boshqa davlatlar bilan hamkorlikda;
- shaxsiy;
- davlat;

Qurilishning jadal sur'atlar bilan o'sishi ko'pincha ushbu sohaga investitsiyalarni mavjud sarmoyalarning umumiy investitsiyalaridan biri sifatida qarashga imkon beradi. Bu holatda investitsiya ob'ektlari - uy-joy, sanoat, ishlab chiqarish, ijtimoiy fondler bo'lishi mumkin. Uy-joy fondlari investitsiyalar uchun mashhur segmentdir. Bu





shunchaki shaharlarga emas, balki yashil ko'chmas mulkka ham tegishli. Bunday mashhurlikka sabab bo'lgan bir qator omillar mavjud:

1. Qurilishning dastlabki bosqichlarida uy-joy fondining kvadrat metrlari narxi tayyor uy-joy narxlaridan ancha past.
2. Tayyor uy-joy yoki notijoriy binolar odatda ijaraga olinadi, bu esa investorga ma'lum foyda keltiradi.
3. Barqaror iqtisodiy sharoitlarda, ayniqsa, rivojlangan infratuzilma ob'ektlari bo'yicha ikkinchi darajali uy-joylar narxi o'sib bormoqda.
4. Qishloq xususiyatlari kamdan-kam uchraydi. Uy-joy narxining o'sishi uchun qo'shimcha omil shahar va mintaqa hududlarini birlashtiruvchi ehtimollik bo'lishi mumkin.
5. Ijara bilan bir qatorda, mehmonxona zanjiriga investitsiyalar keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, mintaqa sayyohlar uchun jozibador bo'lsa.

Yurtimizda ham jahon miqyosidagi talablarga javob beradigan investitsion muhit yaratilgan. Hukumat tomonidan investorlar uchun barcha qulayliklar yaratib berilgan. Shu sababli ham, yurtimizda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini kompleks rivojlantirish dasturi bo'lmish "Harakatlar strategiyasi"ni birinchi yo'nalishi ham aynan ushbu sohaga yo'naltrilgan bo'lib, davlat va jamiyat qurilishiga keng imkoniyatlar yaratishga e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan edi.

Samarqand viloyatida ham yildan yilga investitsion muhit rivojlanib bormoqda, chet ellik va yurtimiz investorlarning qiziqishi ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida qurilish va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish uchun jalb qilinayotgan investitsiyalar haqida gapiradigan bo'lsak, Samarqand viloyatida qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, ushbu yo'nalishga investorlarni keng jalb qilish orqali yirik loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, 2020-2022 yillarda viloyatda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi bilan hamkorlikda jami 91 ta ana shunday loyihalar hayotga tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Natijada, 4,46 mln. tonna sement, 2,9 mln. metr kvadrat "sendvich" panellar, 250 ming metr kub gazobeton bloklari, shuningdek, alyumin eshik va romlari, temir-beton buyumlari, burama mixlar, quruq aralashmalar, plastik quvurlar, gipsokarton, metal mahsulotlari, tom yopqich materiallari kabi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.

Dasturga ko'ra, yangi korxonalar viloyatning asosan Urgut, Pastdarg'om, Jomboy, Paxtachi, Oqdaryo, Kattaqo'rg'on, Samarqand tumani va Samarqand shahrida tashkil etiladi.





Xususan, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi hududida “Aziya metall prof” MChJ tomonidan umumiy qiymati 56,3 mln. dollar bo‘lgan yirik loyiha amalga oshirilyapti. Mazkur loyihaning noyoblighi shundaki, u nafaqat respublikamizda, balki Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan murakkab texnologiya asosida yuqori haroratda ruxni qizdirib, 0,35 mm.dan past qalinlikdagi rux bilan qoplangan va polimerzatsiyalashgan yiliga 120 ming tonna tunuka mahsulotlari ishlab chiqarish va mahsulotning qariyb 100 foizini eksportga yo‘naltirilishiga erishiladi. Korxonada shuningdek, turli o‘lchovdagi aylana va to‘rtburchak metall quvurlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Urgut tumanida “Sam dray fruits” MChJ tomonidan umumiy qiymati 2 mln. 135 ming dollar bo‘lgan yana bir yirik loyiha amalga oshirildi. Bu yerda yillik quvvati 275 ming m<sup>2</sup> sendvich panellar va penoplast ishlab chiqarilmoqda. E’tiborlisi, korxonada faoliyatini boshlashi bilan 50 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Jomboy tumanida, “Keramik briks” MChJ tomonidan, umumiy qiymati 10 mln. dollar bo‘lgan yirik loyiha ishga tushirildi. Korxonada Ispaniyaning “Beralmar technology” texnologik uskunalari bilan jihozlangan bo‘lib, yiliga 7,5 mln. dona 2 xildagi tashqi pardoz, 2,5 mln. dona katta gabaritli zamonaviy keramik bloklar ishlab chiqarilmoqda.

Pastdarg‘om tumanida “Maroqand kabel invest” MChJ tomonidan yillik quvvati 160 ming tonna bo‘lgan kichik sement zavodi qurilib, ishga tushirildi. Shu bilan birga joriy yilning dekabr oyida “Jomboy yashil chiroqlari” MChJ tomonidan yillik quvvati 300 ming tona bo‘lgan sement zavodi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, viloyatda yillik quvvati 2,7 mln. tonna bo‘lgan yangi sement zavodlarini (Pastdarg‘om tumanida “Samarqand Afrosiyob sement” MChJ (561 ming tonna), “Indigo send treyd” (100 ming tonna), Nurobod tumanida “Maroqand sement invest” MChJ (1050 ming tonna), Samarqand tumanida “Jomboy sement” (1000 ming tonna) qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.





### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелда “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. [htt // Lex.uz](http://Lex.uz).
2. Э.Метрик (Wharton School of Business), П.Гомперс ва Ж.Ишии (Harvard University) томонидан АҚШнинг 1500 та компаниялари бўйича олиб борилган ва натижалари 2003 йилда Quarterly Journal of Economics журналининг февраль сонида нашр этилган.
3. Мирзиёев. Ш.М. Танкидий таҳлил, қдтгий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаоллиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.
4. А.Исмаилов, В.А.Фёдоров, “Short Intensive Computer - Lingaphone Course of Social English” Tashkent “University” 2009.
5. U.A. Muxammadiev, X.T.Bo`riyev, M.Z.Yuzboeva. Menejment – savol va javoblarda: O`quv qo`llanma. – 2019 y.
6. Махматкулов, и. Т. (2022). Инновационные решения по организации строительства многофункциональных спортивных сооружений. In студент года 2022 (pp. 119-129).
7. Махматқулов, и. Т. (2022). Proposals for the use of historic shopping malls in uzbekistan for modern purposes. Middle european scientific bulletin, 21, 198-201.

